

## 2020-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari


Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Jizzax viloyatida jami 322,9 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 108,1 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2,5 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 0,8 % ni tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 54,4 % ni tashkil etdi.


Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 77,9 % i yoki 251,5 mlrd. so‘m to‘g‘ri keldi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 111,7 % ni tashkil etdi. Norasmiy sektor hissasiga esa 21,3 % yoki 68,9 mlrd. so‘m to‘g‘ri keldi, hamda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 100,1 % ni tashkil etdi.

## 2020-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari tarkibi



2020-yil yanvar-fevral oylarida viloyatda jami 322,9 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 108,1 % ni tashkil etdi.

## 2020-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari tarkibi (jamiga nisbatan % da)




2020-yil yanvar-fevral oylarida viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlaringin qariyb 77,9 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga, 21,3 % i norasmiy sektor hissasiga va qolgan 0,8 % i esa yirik qurilish tashkilotlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Viloyatda asosan qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, jami qurilish ishlarining 77,9 % ini tashkil etdi yoki 251,5 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 111,7 % ni tashkil etdi. Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi qariyb 2,5 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi va jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 0,8 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 68,9 mlrd. so‘nni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmning 21,3 % ga teng bo‘ldi. Shu bilan birga o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 100,1 % ni tashkil etdi.



## 2020-yilning yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan, % da)



● Yirik qurilish tashkilotlari

● Kichik korxona va mikrofirmalar


● Norasmiy sektor

Viloyatda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin eng yuqori ulushi Jizzax shahrida (89,8 %), Sharof Rashidov tumanida (89,6 %) amalga oshirildi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich Paxtakor (68,3 %), Mirzacho'l (66,8 %) hamda Zomin (65,2 %) tumanlarida yuqori ulushni tashkil etadi.

Kichik korxona va mikrofirmalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin eng kam ulushi Yangiobod (26,5 %) va Arnasoy (39,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Ushbu tumanlar bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, mos ravishda ulushlari 73,5 % va 60,2 % ni tashkil etdi.

**2020-yilning yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlaringin o'sish sur'atlari**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Qurilish ishlaringin shahar va tumanlar kesimida eng yuqori o'sish sur'ati Jizzax shahrida, Zarbdor va Do'stlik tumanlarida kuzatildi.

Jizzax shahrida asosan qurilayotgan namunaviy loyihalardagi turar joylarining qurilish ishlari jadal borilayotgani tufayli o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,4 % bo'lishi ta'minlandi.

Zarbdor tumanida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qurilgan ijtimoiy soha obyektlari barpo etilayotganligi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 117,0 % ni tashkil etdi.




## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda noturar binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmining 77,2 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 12,3 % punktga ko'paydi. Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi joriy davrda 13,5 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 7,0 % punktga kamaydi. Maxsus qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi esa 9,3 % ga to'g'ri keldi.



## 2020-yil yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari (mlrd. so‘m)




● mlrd. so‘m

Shahar va tumanlar kesimida bajarilagan qurilish ishlarining eng katta hajmi Jizzax shahrida 139,3 mlrd. so‘m qayd etildi. Bunga izoh sifatida shahar qiyofasini tubdan yangilash, sotish uchun qurilayotgan ko‘p qavatli uylar, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, ijtimoiy soha va ko‘ngilochar maskanlarini barpo etilayotganini ta’kidlash mumkin.


Shu bilan bir qatorda, yuqori sur’atlarda bajarilayotgan qurilish ishlari hajmi Sharof Rashidov tumanida kuzatildi. Bu tumanda bajarilgan qurilish ishlari 68,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlarining asosiy qismini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan uylar tashkil qilmoqda.

## 2020-yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlaringin iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

2020-yil yanvar-fevral




- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

## 2020-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘mda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlaridan tashkil topdi.

Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 77,2 % ni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 12,3 % punktga ko‘paydi.


Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 13,5 % ni tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 7,0 % punktga kamaydi. Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari esa (ulushi 9,3 %) o‘tgan yildagi ko‘rsatgichga nisbatan 5,3 % punktga kamaydi.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida mulkchilik shakllari  
bo‘yicha qurilish ishlari tarkibi  
(jamiga nisbatan ulushi, % da)**



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 309,9 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmining 96,0 % ini, davlat tasarrufidagi qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi esa 4,0 % ini tashkil qildi.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar  
kesimida qurilish ishlari  
(jamiga nisbatan ulushi, % da)**



■ Arnasoy ■ Baxmal ■ G'allaorol ■ Sh.Rashidov ■ Do'stlik ■ Zomin ■ Zarbdor ■ Zafarobod  
■ Mirzacho'l ■ Paxtakor ■ Yangiobod ■ Jizzax sh.

Jizzax viloyatida jami bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulushi Jizzax shahri hissasiga (43,1 %) to‘g‘ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sharof Rashidov (21,3 %), G‘allaorol (5,5 %) va Paxtakor (5,3 %) tumanlari ham viloyatning qolgan tumanlariga nisbatan yuqori ulushga egaligini ko‘rish mumkin.

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi  
investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo‘limi**

Aloqa telefoni: (72) 221-53-73